

## Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2026- yil yanvar-fevral


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yilning yanvar-fevral oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 162,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirilganda **13,3** %ga oshdi.

**Ma'lumot uchun:** 2025- yilda xizmatlar hajmi **6 759,6** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil bilan solishtirilganda **12,3** %ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi  
mlrd so'mda <sup>1</sup>



### II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2026- yilning yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **29,5** %, ya'ni **2 409,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirilganda ushbu hududda **13,1** %ga oshgan. Andijon shahridan tashqari, viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Asaka (**321,7** mlrd so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,9** %ini egalladi), Andijon (**291,7** mlrd so'm, **3,6** %), **Shahrixon** (**269,7** mlrd so'm, **3,3** %) va Baliqchi tumanida (**264,9** mlrd so'm, **3,2** %) kuzatildi. Ulug'nor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **86,8** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,1** %ini tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2022-2025- yillar va 2026- yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



**Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari**  
2026- yil yanvar-fevral

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>8 162,7</b>	<b>100,0</b>	<b>113,3</b>
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	2 409,9	29,5	113,1
Xonobod sh.	123,0	1,5	112,4
Oltinko'l	224,3	2,7	111,4
Andijon	291,7	3,6	111,1
Baliqchi	264,9	3,2	112,2
Bo'ston	98,5	1,2	112,0
Buloqboshi	163,8	2,0	111,7
Jalaquduq	232,9	2,9	112,9
Izboskan	238,3	2,9	112,8
Ulug'nor	86,8	1,1	111,3
Qo'rg'ontepa	257,4	3,2	112,6
Asaka	321,7	3,9	111,2
Marhamat	205,6	2,5	112,1
Shahrixon	269,7	3,3	112,5
Paxtaobod	198,2	2,4	112,7
Xo'jaobod	219,2	2,7	111,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2026- yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahridan tashqari viloyatning boshqa hududlarida, xususan, Jalaquduq (**112,9 %**), Izboskan (**112,8 %**), Paxtaobod (**112,7 %**), Qo'rg'ontepa (**112,6 %**), Shahrixon (**112,5 %**) va Xonobod sh (**112,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirganda nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Andijon tumanida (**111,1 %**) qayd etildi.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida Andijon viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 337,9** ming so'mni tashkil etdi. 2025- yildagi (**1 972,1** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **365,9** ming so'mga, ya'ni **11,2 %**ga o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri kelib, **4 839,2** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirganda **712,4** ming so'mga (**10,5 %**) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajmni Xonobod sh (**2 628,4** ming so'm), Xo'jaobod (**1 776,7** ming so'm) va Ulug'nor (**1 346,5** ming so'm) tumanlari egalladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shahrixon tumanida (**806,9** ming so'm) qayd etildi.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**  
2026- yil yanvar-fevral

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>2 337,9</b>	<b>111,2</b>
shahar va tumanlar:		
Andijon sh.	4 839,2	110,5
Xonobod sh.	2 628,4	111,0
Oltinko'l	1 147,8	110,2
Andijon	986,7	108,8
Baliqchi	1 192,5	110,1
Bo'ston	1 223,2	109,7
Buloqboshi	1 041,6	109,7
Jalaquduq	1 143,9	111,2
Izboskan	907,6	110,7
Ulug'nor	1 346,5	110,6
Qo'rg'ontepa	1 089,7	110,8
Asaka	881,0	109,2
Marhamat	1 073,1	110,0
Shahrixon	806,9	110,3
Paxtaobod	924,3	110,8
Xo'jaobod	1 776,7	109,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Eng yuqori o'sish sur'ati Jalaquduq tumanida (**111,2 %**), Xonobod shahar (**111,0 %**), Paxtaobod va Qo'rg'ontepa tumanlarida (**110,8 %**), Izboskan (**110,7 %**), Ulug'nor (**110,6 %**), Andijon shahar (**110,5 %**), Shahrixon (**110,3 %**), Oltinko'l (**110,2 %**), Baliqchi (**110,1 %**), Marhamat (**110,0 %**), Buloqboshi va Bo'ston (**109,7 %**) tumanlarida, shuningdek, Xo'jaobod tumanida (**109,4 %**) qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 852,0** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **71,7 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirganda **112,3 %**ni tashkil etdi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Marhamat (**71,6 %**), Xo'jaobod (**68,5 %**), Jalaquduq (**68,3 %**), Andijon (**67,6 %**), Oltinko'l (**67,5 %**), Izboskan (**66,6 %**), Xonobod sh (**64,7 %**), Andijon sh va Baliqchi (**63,5 %**), tumanlarida hamda Ulug'nor tumanida (**58,9 %**) kuzatilmogda. Ushbu hududlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi. Shu bois u yanada moslashuvchan, biroq qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyalashtirish imkoniyatlariga nisbatan sezgirroq bo'ladi.



Shahrixon va Paxtaobod tumanlari kabi qator hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq. Shahrixon tumanida kichik tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **143,1** mlrd so'mni, Paxtaobod tumanida esa **104,5** mlrd so'mni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari**

2026- yil yanvar-fevral

	Hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmdagi Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>5 852,0</b>	<b>71,7</b>	<b>112,3</b>
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	1 529,2	63,5	109,7
Xonobod sh.	79,6	64,7	112,5
Oltinko'l	151,3	67,5	110,6
Andijon	197,2	67,6	111,2
Baliqchi	168,3	63,5	111,6
Bo'ston	58,3	59,2	110,6
Buloqboshi	92,7	56,6	109,9
Jalaquduq	159,1	68,3	116,0
Izboskan	158,7	66,6	116,3
Ulug'nor	51,1	58,9	110,3
Qo'rg'ontepa	133,9	52,0	110,5
Asaka	191,5	59,5	109,9
Marhamat	147,2	71,6	111,6
Shahrixon	143,1	53,0	111,1
Paxtaobod	104,5	52,7	110,0
Xo'jaobod	150,2	68,5	111,3

**III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**17,0** %ga; umumiy o'sishga **2,7** foiz band hissa qo'shdi), savdo xizmatlari (**13,4** %ga; **2,3** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**13,7** %ga; **3,4** f.b.), transport xizmatlari (**8,9** %ga; **1,6** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**7,4** %ga; **0,3** f.b.), boshqa xizmatlar (**10,7** %ga; **0,6** f.b.), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**39,0** %ga; **1,5** f.b.), shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**14,6** %ga; **0,3** f.b.) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning (**12,2** %ga; **0,1** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ijara xizmatlari (**7,9** %ga), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**5,0** %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**11,1** %ga) va shaxsiy xizmatlar (**5,1** %ga) o'sib, **0,5** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



2026- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **25,1** %, transport xizmatlari **18,1** %, savdo xizmatlari **17,4** %, moliyaviy xizmatlar **16,0** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,0** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,9** % ulushni egalladi.

### Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2025- yil yanvar-fevral	2026- yil yanvar-fevral	
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>6 759,6</b>	<b>8 162,7</b>	<b>113,3</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	267,4	322,8	107,4
moliyaviy xizmatlar	1 109,1	1 305,7	117,0
transport xizmatlari	1 212,6	1 480,4	108,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 108,5	1 345,1	106,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 662,7	2 047,2	113,7
savdo xizmatlari	1 195,6	1 417,2	113,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	130,6	150,5	112,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	229,1	321,2	139,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	130,8	155,0	114,6
ijara xizmatlari	108,0	125,0	107,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	143,6	167,0	111,1
shaxsiy xizmatlar	264,8	308,6	105,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,3	40,9	105,0
boshqa xizmatlar	268,8	321,2	110,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **384,5** mlrd so'mga oshib, **2 047,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **98,9** % darajasida qayd etildi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari hajmi **1 480,4** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari **90,9** %, yoki **1 345,1** mlrd so'm hajm bilan ustunlik qiladi.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi ichki va tashqi savdo faoliyati, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

### Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi 2026- yil yanvar-fevral



2025- yilga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **221,5** mlrd so'mga oshib, **1 417,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **69,4** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **12,9** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **17,7** %ni tashkil etdi.


2025- yilga nisbatan 2026- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **196,6** mlrd so'mga oshib, **1 305,7** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil bilan solishtirganda **17,0** %ga o'sdi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **83,6** %ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **2,5** % darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **13,9** %ni tashkil etdi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **322,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur tarmoqdagi eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (**78,5** %) egalladi.

Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan davrda aloqa va axborot xizmatlari umumiy hajmining kompyuter dasturlashtirish xizmatlari ulushi **13,6** %, axborot xizmatlari **3,5** %, noshirlik xizmatlari **3,6** % va boshqa xizmatlar **0,8** % ni tashkil etgani ta'kidlandi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi 2026- yil yanvar-fevral, mlrd so'mda





Bu sohada dasturlashtirishning yuqori ulushi yangi AT-klasterni paydo bo'layotganini ko'rsatadi. U qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va eksport imkoniyatlarini oshiradi, ayniqsa outsorsing va dasturiy ta'minot ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **321,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **56,7** %ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**150,5** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **99,8** % darajasida qayd etildi.

2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **155,0** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **114,6** % ni tashkil etgan.

#### IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

##### Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** - xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlarini bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.



**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizam

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati



**Chiqarish uchun javobgar:**  
*Xizmatlar sohasi statistikasi*  
*bo'limi*

**Manzil:** 170100, Andijon sh.,  
Milliy tiklanish ko'chasi, 36-"A" uy,  
**Pochta:** [info@andstat.uz](mailto:info@andstat.uz)  
**Tel.:** 74-224-80-00

